



FARG'ONA VILOYATI FARG'ONA TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 9-iyul

151-11-163-Q/25

Farg'ona tumani hokimligi

Farg'ona viloyati hokimining 2025-yil 5-iyun kungi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 31-maydagi “2025-yil hosilidan bug‘doy xarid qilish va ichki bozorni don bilan barqaror ta’minalash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 345-son qarori ijrosi haqida”gi 299-11-0-Q/25-sonli qarori to‘g‘risida

G‘alla bozorini erkinlashtirish bo‘yicha islohotlarni izchil davom ettirish, ichki bozorni bug‘doy va un mahsulotlari bilan uzlusiz ta’minalash hamda ularning narxlari barqarorligini ta’minalash hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 31-maydagi “2025-yil hosilidan bug‘doy xarid qilish va ichki bozorni don bilan barqaror ta’minalash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 345-son qarori va Tuman hokimining 2025-yil 5-iyun kungi 299-11-0-Q/25-sonli qarori ijrosi ta’minalash maqsadida

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 31-maydagi 345-son qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tuman Qishloq xo‘jaligi bo‘limi 2025-yil hosilidan sug‘oriladigan maydonlarning har gektaridan o‘rtacha **3 tonnadan jami 15680 tonna** bug‘doyning:

9542 tonnasini fermer xo‘jaliklari hamda boshqa bug‘doy yetishtiruvchilar (keyingi o‘rinlarda - bug‘doy yetishtiruvchilar) tomonidan keyinchalik birja savdolarida sotish uchun Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Qishloq xo‘jaligini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasining (keyingi o‘rinlarda - Jamg‘arma) **tijorat vakillari** (keyingi o‘rinlarda - tijorat vakillari) **omborlarida vaqtincha saqlashga qabul qilish;**

5918 tonna tovar bug‘doyni **davlat resursi sifatida;**

220 tonnasini urug‘lik uchun Jamg‘arma mablag‘lari hisobidan xarid qilish to‘g‘risidagi takliflari ma’qullansin.

3. Quyidagilar:

tumanda 2025-yilda yetishtirilgan g‘alla hosilini nes-nobud qilmasdan qisqa muddatlarda o‘rib-yig‘ib olish ishlarini tizimli tashkil etilishida amaliy yordam beruvchi tuman ishchi guruhi tarkibi **1-ilovaga**;

g‘alla o‘rim-yig‘im ishlari hisob-kitobini yurituvchi tuman shtabi tarkibi **2-ilovaga**;

2025-yil hosilidan vaqtincha saqlash, davlat resursi va urug‘lik uchun bug‘doyni qabul qiladigan omborlar dislokatsiyasi **3-3a-ilovaga**;

yil hosilidan davlat resursiga xarid qilinadigan bug‘doyning sinflar kesimidagi narxlarini aniqlash koeffitsiyentlari **4-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

4. Don qabul qiluvchi korxonalar (tijorat vakillari) **bir kun muddatda** “**agrodocs**” axborot tizimida (docs.agro.uz) davlat resursi, vaqtincha saqlash va urug‘lik don qabul qilish bo‘yicha fermer xo‘jaliklari kesimida shartnomalar shakllanishi va har bir shartnomada bo‘yicha belgilangan hajmlar to‘g‘ri kiritilishini ta’minlasin.

Viloyat hokimining mazkur qarori bilan;

Quvasoy shahar va tumanlar hokimlari “**agrodocs**” axborot tizimida shakllangan shartnomalarni fermer xo‘jaliklari tomonidan **bir kun muddatda** tasdiqlanishiga mas’ul qilib belgilanganligi ijro uchun qabul qilinsin.

5. Tuman Qishloq xo‘jaligi bo‘limi (B.Burxonov), Agroinspeksiya bo‘limi (Sh.Xasanov) bilan birgalikda har bir tumanda urug‘lik g‘alla maydonlarini o‘rib-yig‘ib olish bo‘yicha alohida don o‘rish otryadlarini tashkil qilsin.

6. Tuman Agroinspeksiya bo‘limi (Sh.Xasanov) davlat resursi sifatida hamda vaqtincha saqlashga qabul qilinadigan bug‘doyning sifati, saqlanishi hamda xaridorlarga yuklab jo‘natilishida tovar bug‘doyning sifati bo‘yicha nazoratni amalga oshirsin.

7. Tuman hokimining o‘rnbosari K.Jo‘rayev, Qishloq xo‘jaligi bo‘limi boshlig‘ining o‘rnbosari (B.Burxonov), Agro bank (U.Razzoqov) bilan birga vaqtincha saqlashga qabul qilinadigan bug‘doyni birja savdolarida sotishdan tushgan mablag‘lar, birinchi navbatda, Jamg‘arma mablag‘lari hisobidan bug‘doy yetishtirish xarajatlarini moliyalashtirishga ajratilgan kredit hamda urug‘lik bug‘doydan yuzaga kelgan qarzdorlikni so‘ndirishga yo‘naltirilishini ta’minlasin.

8. Vazirlar Mahkamasining mazkur qarori bilan:

respublika tijorat banklari bug‘doy yetishtiruvchilar kesimida 2025-yil g‘alla hosilini yetishtirish uchun ajratilgan imtiyozli kreditlarni hamda urug‘lik bug‘doydan yuzaga kelgan qarzdorliklarni so‘ndirishga talab etiladigan boshqoli don hajmlari bo‘yicha hisob-kitoblarni **uch kun muddatda** O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligiga taqdim etishi;

O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi tijorat banklari tomonidan taqdim etilgan bug‘doy yetishtiruvchilar kesimida bug‘doy topshirish hajmlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va Tumanlar hokimliklariga yuborishi;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va Tumanlar hokimliklari ushbu hisob-kitoblarga asosan bug‘döyni keyinchalik birja savdolarida sotish uchun tijorat vakillari omborlarida vaqtinchalik saqlashga qabul qilinishini ta’minlashi belgilanganligi ijro uchun qabul qilinsin.

Shuningdek:

a) 2025-yil g‘alla hosilidan boshlab, davlat resursiga xarid qilinadigan bug‘doy bo‘yicha hisob-kitoblarni amalga oshirish maqsadida “O‘zbekiston respublika tovar-xomashyo birjasi” AJ (keyingi o‘rinlarda- birja) **har yili 1-iyunga qadar** tegishli yilning yanvar-aprel oylarida 3-sinf bug‘doy uchun birjada shakllangan o‘rtacha narxdan kelib chiqib, 3-sinf bug‘doy uchun o‘rtacha narxni o‘zining rasmiy veb-saytida e’lon qilishi;

b) davlat resursiga xarid qilinadigan bug‘doy uchun hisob-kitoblar birjaning rasmiy veb-saytida e’lon qilingan narxlarga bug‘doyning sinflar kesimidagi narxlarini aniqlash koeffitsiyentlarini qo‘llagan holda amalga oshirilishi;

v) Jamg‘arma davlat resursiga xarid qilingan bug‘doy tijorat vakiliga topshirilgan kundan e’tiboran **ikki hafta muddatda** bug‘doy uchun to‘lovlarini bug‘doy yetishtiruvchining 23210 maxsus hisob-varaqlariga o‘tkazib berishi;

g) vaqtincha saqlash uchun qabul qilinadigan tovar bug‘doyning:

saqlash xarajatlari Jamg‘armaning tijorat vakili va bug‘doy yetishtiruvchilar o‘rtasida tuzilgan shartnomaga muvofiq **2026-yil 1-yanvarga qadar Jamg‘arma mablag‘lari hisobidan;**

tashib keltirish bilan bog‘liq transport harajatlari, qabul qilish va xaridorlarga yuklab jo‘natish xarajatlari tijorat vakili hamda bug‘doy yetishtiruvchilar o‘rtasida tuzilgan shartnomaga muvofiq naqd va o‘zaro hisob-kitob orqali **bug‘doy yetishtiruvchilar hisobidan** to‘lab berilishi;

d) vaqtincha saqlash uchun qabul qilinib, tijorat vakilining don saqlash sig‘imida saqlanayotgan bug‘doy hajmida kamomad yoki me’yordan ortiqcha yo‘qotishlar (kamayish) aniqlanganda, yuzaga kelgan kamomad qiymati kamomad aniqlangan

kundagi bug‘doyning birja savdolaridagi narxiga **100 foiz ustama** qo‘llagan holda tijorat vakilidan bug‘doy yetishtiruvchilar foydasiga undirilishi;

y) bug‘doy yetishtiruvchilar tomonidan respublika hududida ekishga tavsiya etilmagan bug‘doy navlaridan, sifatsiz tayyorlangan va dorilanmagan urug‘lardan ekish uchun foydalanish holatlari aniqlanganda, ularga ushbu yil hosili uchun imtiyozli kreditlar ajratilishi va yetishtirilgan hosilning davlat resurslariga sotilishi taqiqlanishi;

j) Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasi, Davlat zaxiralarini boshqarish qo‘mitasi, Jamg‘arma va Urug‘chilikni rivojlantirish markazi bilan birgalikda **har chorakda va har kalendar yilning 1 may** holatiga o‘tgan yillarda davlat zaxirasi, davlat resursi, vaqtinchalik saqlash va urug‘lik uchun qabul qilingan **bug‘doy qoldig‘ini to‘liq geometrik o‘lchovdan o‘tkazishi belgilanganligi**;

O‘rnatilgan tartibga muvofiq:

Jamg‘arma mablag‘lari hisobidan davlat resursiga xarid qilingan, shuningdek, vaqtincha saqlashga qabul qilingan tovar bug‘doyni barcha xo‘jalik yurituvchi sub‘yektlarga birja savdolari orqali cheklovlarsiz sotishga;

Jamg‘armaning tijorat vakili bo‘lgan donni qayta ishlash quvvatiga ega bug‘doy yetishtiruvchilarga o‘zлari yetishtirgan tovar bug‘doyni o‘z omboriga vaqtincha saqlashga qabul qilib, ushbu bug‘doydan kam bo‘lmagan mikdorda un ishlab chiqarib, birja savdolari orqali sotish majburiyatini olganda, tovar bug‘doyni grafik asosida qayta ishlab sotishga;

bug‘doy yetishtiruvchilarga urug‘lik bug‘doy uchun urug‘lik tayyorlash korxonalari oldidagi, shuningdek, bug‘doyni tashish, qabul qilish, saqlash va xaridorlarga yuklab jo‘natish xarajatlari bo‘yicha tijorat vakillari oldidagi qarzdorliklarini vaqtincha saqlashdagi tovar bug‘doy hisobidan urug‘lik tayyorlash korxonalari hamda tijorat vakillari bilan o‘zaro shartnomalar asosida qoplashga ruxsat berilganligi;

ushbu hisob-kitoblarda bug‘doyning qiymati joriy yil uchun birjada e’lon qilingan 3-sinf bug‘doyning o‘rtacha narxidan past bo‘lmasligi;

urug‘lik bug‘doy tayyorlash korxonalari, tijorat vakillari va Jamg‘arma o‘rtasida tuzilgan uch tomonlama shartnomaga asosan debitor qarzdorliklar undirilishi;

tijorat vakillari omborlarida vaqtincha saqlashga qabul qilinadigan bug‘doyni birja savdolarida sotishdan tushgan mablag‘lar, birinchi navbatda, Jamg‘arma mablag‘lari hisobidan bug‘doy yetishtirish xarajatlarini moliyalashtirishga ajratilgan kreditlar hamda urug‘lik bug‘doydan yuzaga kelgan qarzdorliklarni so‘ndirishga yo‘naltirilishi;

urug‘lik tayyorlash korxonalari qabul qilingan urug‘lik bug‘doy uchun hisob-kitoblarni Jamg‘arma tomonidan tijorat banklariga joylashtiriladigan kredit resurslari hisobidan **ikki bosqichda amalda oshirishi**:

birinchi bosqichda - urug‘lik bug‘doyning har tonnasiga joriy yil hosili 3-sinf bug‘doyi uchun birjada e’lon qilingan o‘rtacha narxda;

ikkinchi bosqichda - urug‘lik sifatida amalda sotilgai (elektron hisob-faktura asosida) **bug‘doyning** har tonnasi uchun Vazirlar Mahkamasining “Qishloq xo‘jaligi ekinlari urug‘chiligiga oid ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida” 2021 yil 12 oktyabrdagi 641-son qarorida boshoqli don urug‘larining avlodlari uchun belgilangan ustamalarni qo‘llagan holda qayta hisob-kitob qilinishi;

Bunda:

barcha urug‘lik yetkazib bergen xo‘jaliklar bilan hisob-kitoblar tayyorlangan umumiy urug‘lik hajmi va amalda sotilgan urug‘lik nisbatida aniqlanadigan ulushga muvofiq mikdorda amalga oshirilishi;

Jamg‘arma urug‘lik bug‘dohni xarid qilish, tayyorlash va sug‘urtalash xarajatlarini kreditlash uchun 12 oy muddatga (shundan 6 oy imtiyozli davr bilan), O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki asosiy stavkasining 50 foizi miqdoridan 4 foiz bandga past stavkada kredit resurslarini urug‘lik bug‘doy tayyorlash korxonalariga xizmat ko‘rsatuvchi tijorat banklariga joylashtirishi;

tijorat banklari ushbu kredit resurslari hisobidan urug‘lik bug‘doy tayyorlash korxonalariga sug‘urta polisi asosida O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki asosiy stavkasining 50 foizi mikdorida 12 oy muddatga (shundan 6 oy imtiyozli davr bilan) kredit ajratishi;

urug‘lik tayyorlash korxonalarining bank hisob-varaqlariga urug‘lik bug‘dohni sotishdan tushgan mablag‘lar, birinchi navbatda, Jamg‘arma resurslari hisobidan ajratilgan kreditlarni so‘ndirishga yo‘naltirilishi;

O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi tijorat banklari bilan birgalikda urug‘lik bug‘doy tayyorlash korxonalari tomonidan yetkazib berilgan urug‘lik bug‘doy uchun qarzlarni 2026-yil hosili uchun bug‘doy yetishtirish xarajatlarini moliyalashtirishga ajratiladigan imtiyozli kreditlar hisobidan ustuvor ravishda to‘lab berilishini tashkil etishi;

urug‘lik bug‘doy hisob-kitobini amalga oshirish uchun tijorat banklari Jamg‘armaga alohida kredit buyurtmalari taqdim etishi hamda ushbu maqsadlar uchun ajratilgan mablag‘larning boshqa yo‘nalishlarga sarflanishiga yo‘l qo‘yilmasligi;

tijorat vakillari omborlarida vaqtincha saqlashga qabul qilingan bug‘doy birja savdolariga oyma-oy grafik asosida qo‘yilishini inobatga olib:

yil hosili uchun bug‘doy yetishtirish xarajatlarini moliyalashtirishga ajratilgan kreditlarni qaytarish muddati, istisno tariqasida, 2025-yil 1-sentyabrga qadar;

yil hosili uchun bug‘doy yetishtirish xarajatlarini moliyalashtirishga ajratilgan kreditlarni qaytarish muddati, istisno tariqasida, 2026-yil 1-aprelga qadar uzaytirilsin.

Bunda, Jamg‘arma tomonidan bug‘doy yetishtirish xarajatlarini moliyalashtirish maqsadida tijorat banklariga joylashtirilgan kredit resurslarini qaytarish muddati mutanosib ravishda uzaytirilishi;

Vazirlar Mahkamasining “Qishloqni lizing shartlarida qishloq xo‘jaligi texnikasi bilan ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2000-yil 2-noyabrdagi 424-son qaroriga asosan mahalliy ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan tayyor holda import qilingan yangi zamonaviy g‘alla o‘rish kombayni va paxta terish mashinasi hamda ular bilan agregatlashtirilib ishlatiladigan traktorlarni qishloq xo‘jaligi korxonalariga imtiyozli lizing shartlarida yetkazib berish uchun Jamg‘arma tomonidan 2025-yilda moliyalashtirilishi belgilanganligi;

Bunda, 2025-yilda ushbu resurslar asosida xarid qilingan texnikalarga Jamg‘arma tomonidan texnikalar uchun qonunchilikda belgilangan subsidiya va kompensatsiyalar ajratilmasligi belgilab qo‘yilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

9. Tuman hokimligi, Qishloq xo‘jaligi bo‘limi, tijorat vakillari bilan birgalikda:

2025-yil hosilidan tayyorlangan urug‘lik bug‘doyni sovitkichli omborxonalarda saqlab, ularning tinim davrini o‘tagan holda ekish amaliyotini joriy etsin;

urug‘lik bug‘doy tayyorlash korxonalarida 2026-yil hosili uchun jamg‘arilgan urug‘lik bug‘doy to‘dalarini nav va avlodlar bo‘yicha tozalash, saralash, dorilash va qadoqlash ishlarini **2025-yil 10-avgustga** qadar yakunlasin.

10. Qishloq xo‘jaligi bo‘limi (B.Burxonov) **bir hafta muddatda** urug‘lik to‘dalarini (partiya) sovitkichli omborxonalarda saqlanishi bo‘yicha **manzilli ro‘yxatni ishlab chiqib** Viloyat Qishloq xo‘jaligi boshqarmasiga taqdim etsin.

11. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari O.Abduraximov:

bir xafta muddatda Jamg‘arma va Birja bilan birgalikda bug‘doy yetishtiruvchilar kesimida tasdiqlangan vaqtincha saqlash uchun qabul qilinadigan bug‘doyni birja savdolariga qo‘yish bo‘yicha oylik grafiklarni umumlashtirgan holda tasdiqlasin hamda kelgusi oyda birja savdolariga qo‘yiladigan bug‘doy hajmlarini **joriy oyning 30-sanasiga qadar** Birjaning rasmiy veb-sahifasiga joylashtirib borsin.

kelgusi oylarda birja savdolariga qo‘yiladigan bug‘doy to‘g‘risidagi ma’lumotlarni kalendar oy boshlanishidan **ikki kun oldin** Birjaning rasmiy veb-sahifasiga joylashtirish uchun taqdim etib borsin.

12. Tuman Ichki ishlar bo‘limi, Favqulotda vaziyatlar bo‘limi, tuman hokimligi bilan birgaliqda yo‘llarda g‘alla o‘rish va don tashish texnikalarining harakatlanish xavfsizligini ta’minlash, g‘alla maydonlarida yong‘in kelib chiqishining oldini olish, shuningdek, yetishtirilgan hosilni talon-toroj qilinishiga yo‘l qo‘ymaslik yuzasidan zarur choralarни ko‘rsinlar.

14. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari O.Abduraximov hamda Tuman hokimining o‘rinbosari K.Jo‘rayev zimmasiga yuklansin.

Farg‘ona tuman hokimi



Inomov X.T

Farg‘ona tumani hokimining
2025-yil 9-iyuldagি
151-11-163-Q/25-son qaroriga
1-ilova

**Tumanda 2025-yilda yetishtirilgan g‘alla hosilini nes-nobud qilmasdan qisqa
muddatlarda o‘rib-yig‘ib olish ishlarini tizimli tashkil etilishida amaliy
yordam beruvchi "Tuman ishchi guruhi"**

TARKIBI

№	F.I.Sh	Lavozimi
1	K.Jo‘rayev	Tuman hokimining qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘ribbosari, <i>ishchi guruhi rahbari</i>
2	K.Sotvoldiyev	Tuman IIB boshlig‘i o‘ribbosari, <i>ishchi guruhi rahbari o‘ribbosari</i>
3	I.Xamdamov	Tuman Favqulotda vaziyatlar bo‘limi boshlig‘i
4	B.Burxonov	Tuman Qishloq xo‘jaligi bo‘limi boshlig‘ining 1-o‘ribbosari
5	A.Akbarov	Tuman Fermerlar kengashi raisi
6	Sh.Xasanov	Tuman Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish bo‘limi boshlig‘i
7	U.Razzoqov	ATB Agrobank boshlig‘i

Farg‘ona tumani hokimining
2025-yil 9-iyuldagি
151-11-163-Q/25-son qaroriga
2-ilova

**Tumanda 2025-yilda yetishtirilgan g‘alla hosilini nes-nobud qilmasdan qisqa
muddatlarda o‘rib-yig‘ib olish ishlarini tizimli tashkil etish bo‘yicha tuman**

**Shtabi
TARKIBI**

№	F.I.Sh	Lavozimi
1	K.Jo‘rayev	Tuman hokimining qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari, shtab rahbari
2	B.Burxonov	Tuman Qishloq xo‘jaligi boshqarmasi boshlig‘ining 1-o‘rinbosari, shtab rahbari o‘rinbosari
3	K.Sotvoldiyev	Tuman IIB boshlig‘i o‘rinbosari
4	I.Xamdamov	Tuman Favqulotda vaziyatlar bo‘limi boshlig‘i
5	A.Akbarov	Tuman Fermerlar kengashi raisi
6	Sh.Xasanov	Tuman Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish bo‘limi boshlig‘i
10	U.Razzoqov	ATB Agrobank boshlig‘i

Farg‘ona tumani hokimining
2025-yil 9-iyuldagি
151-11-163-Q/25-son qaroriga
3-ilova

**Farg‘ona tumanida 2025-yil hosilidan sug‘oriladigan maydonlardan bug‘doyni qabul qilish
DISLOKATSIYASI**

T/ r	Xududlar nomi	Jami qabul qilinadiga n bug‘doy	Shu jumladan:			tonna urug‘lik bug‘doy	
			tovar bug‘doy	shundan:			
				davlat resursi sifatida xarid qilinadigan bug‘doy	vaqtincha saqlashga qabul qilinadigan bug‘doy		
1	Damko‘l Oqtom Guliston	559	426	205	221	133	
2	Far Novkent Rustam	54	54	23	31		
3	Usmonobod Tarovati hududi	179	179	71	109		
4	Yangiobod Shoximardonobod hududi	38	38	25	14		
5	Vodil Qizilqo‘rg‘on hududi	528	528	208	321		
6	Avval Usmonjon Ibroximjon	563	563	195	367		
7	Yuqori Vodil birlik hududi	265	265	95	170		
8	Logon Maxkam Xakimobod hududi	66	66	46	20		
9	Logon A.Navoiy hududi	103	103	103			
10	Gulshan Oq oltin jilosi hududi	787	787	358	429		
11	Mindon A.Raxmonaliyev hududi	772	772	268	504		
12	Far Chimyon Qorasuv hududi	294	294	128	165		
13	Chimyon Xazrati Xuvaydo hududi	498	498	179	319		
14	Yangi bog‘ Raxmonali Abdumalik	28	28	28			
15	Xonqiz Raximov Ro‘zimatjon	1 134	1 134	319	815		
16	Qo‘rg‘ontepa zamin saxovati hududi	882	829	346	483	53	
17	Cheksho‘ra Mashrab Bobur hududi	751	717	348	369	34	
	Fergana-Oseana	8177	8177	2972	5205		
	Tuman jami	15 680	15 459	5 918	9 542	220	

**Farg‘ona tumanida 2025-yil hosilidan don va non maxsulotlari barqarorligini
ta’minlash uchun jamg‘ariladigan bug‘doy**
HAJMLARI

T/r	Fermer xo‘jaliklari nomi	Jami qabul qilinadigan bug‘doy	tovar bug‘doy	Shu jumladan:			urug‘lik bug‘doy	
				shundan:				
				davlat resursi sifatida xarid qilinadigan bug‘doy	vaqtincha saqlashga qabul qilinadigan bug‘doy			
1	Fayzuloxon Raxmonali nixoli	134	134,5	48,8	85,7			
2	Damko‘l Xolmatjon nixol bog‘i	305	172,1	126,7	45,4	132,96		
3	Damko‘l Shuxrat	37	36,8	6,5	30,4			
4	Oqtom Tursunobod zamini	18	17,6	0,0	17,6			
5	*Sharif xoji	65	65,4	23,0	42,4			
	Damko‘l Oqtom Guliston	559	426,5	205,0	221,4	133,0		
6	Karimxoji Zokirov	54	53,5	23,0	30,6			
	Far Novkent Rustam	54	53,5	23,0	30,6			
7	G‘ulomjon Azamatjon bog‘i	130	130,3	45,8	84,5			
8	Axliddin yeri	49	49,0	24,9	24,1			
	Usmonobod Tarovati hududi	179	179,3	70,8	108,6			
9	Shoximardonobod Shaxnoza	38	38,4	24,6	13,8			
	Yangiobod Shoximardonobod hududi	38	38,4	24,6	13,8			
10	Vodil Ro‘zali Madinabonu	123	123,5	44,9	78,6			
11	Akbarali Karimjon fayzi	154	154,0	53,1	100,9			
12	Inoyatxon Shaxnoza	44	43,8	20,1	23,7			
13	G‘ayratjonov Xojiakbar	41	40,9	18,9	22,0			
14	"Farpromteximpeks" MCHJ	16	15,7	8,8	6,9			

15	Elnoraxon Aliyorbek	87	87,2	31,7	55,5	
16	Axmadjon Axror bogi	63	63,3	30,2	33,1	
	Vodil Qizilqo‘rg‘on hududi	528	528,5	207,8	320,7	
17	Avval Rustam zamin	29	28,6	0,0	28,6	
18	Avval Sobirjon zamini	125	125,0	47,8	77,2	
19	Luch lyuks	53	52,8	13,4	39,4	
20	Muxammadrasul ziyozi	99	99,0	37,6	61,4	
21	Yog‘ moy Fergana (U.Erkayev)	15	15,4	15,4		
22	Parizoda Dilfuza	71	71,5	18,3	53,2	
23	Avval Bexruzbek	94	94,1	34,7	59,4	
24	Avval Obidjonobod fayzi	76	76,5	28,2	48,3	
	Avval Usmonjon Ibroximjon	563	562,8	195,5	367,3	
25	Valijon Jamshidbek	146	146,5	51,2	95,2	
26	Isroil Ilxomjon zamini	119	118,6	44,1	74,5	
	Yuqori Vodil birlik hududi	265	265,0	95,3	169,7	
27	Qodirjon Fayz zamini	49	48,5	28,3	20,2	
28	*Qo‘zmonboy Qobiljon TRANS	18	17,9	17,9	0,0	
	Logon Maxkam Xakimobod hududi	66	66,4	46,2	20,2	
29	Istiqlol Vodiy tongi	103	103,4	103,4		
	Logon A.Navoiy hududi	103,4	103,4	103,4	0,0	
30	Gulshan Jasurbek Sarvarbek	16	16,5	14,2	2,3	
31	Ermat Normatov	61	61,0	32,3	28,7	
32	Gulshan Jo‘rabek Muxammad Yusuf	102	101,9	61,7	40,2	
33	Chimyon Nodir Bek Jo‘rabyoyev	79	79,4	30,5	48,9	
34	Dostonbek Abdubannop	92	92,0	49,8	42,1	
35	Qayirma 2018	125	125,3	48,4	76,8	
36	Gulshan Voxidov Umidjon	119	118,5	46,5	72,1	
37	Mindon chashma agro	127	127,0	49,4	77,5	
38	Iqbol Shoxbonu	66	65,8	25,5	40,3	
	Gulshan Oq oltin jilosi hududi	787	787,2	358,3	428,8	
39	Karimaxon Saodatxon boglari	83	83,3	31,6	51,7	
40	Muhammadsodiq Yusuf zamini	71	71,0	25,1	45,9	
41	Mindon Sulaymon	117	116,6	42,4	74,2	
42	Mindon Kamolboyvachcha	117	117,2	45,4	71,8	
43	DNSU	56	55,8	21,9	34,0	
44	Iqbol Mirzo zamini	137	136,7	17,4	119,3	

45	Axmadali Mamtali	7	6,8	6,8	0,0	
46	Rasuljonov Iqboljon	59	58,6	21,9	36,8	
47	Mindon Abduraxmon zamini	58	57,7	21,6	36,1	
48	Mindon Olimjon Sirojiddin	14	13,7	10,9	2,8	
49	Moxitabon nixollari	55	54,9	23,58	31,4	
	Mindon A.Raxmonaliyev hududi	772	772,4	268,5	503,9	
50	Chimyon Shuxrati	60	60,3	18,8	41,5	
51	Mamajon Ziyo Javoxir	20	19,6	14,6	5,0	
52	Paxtaboy Agroinvest	71	71,1	27,1	44,0	
53	Bog‘bon Raximberdi Xatamov	42	41,7	19,8	21,8	
54	*Axmadali Aqoiddin	51	50,7	28,5	22,2	
55	Shukurov Abduvoxid zamini	50	50,4	19,5	30,9	
	Far Chimyon Qorasuv hududi	294	293,8	128,4	165,4	
56	Odil-Muxammad Nizomov	45	45,1	17,5	27,6	
57	Sherzod	37	36,9	14,7	22,2	
58	Chimyon quyi Archa	50	50,0	21,4	28,6	
59	Chimyon Bo‘stoni	60	59,7	19,0	40,7	
60	Paxlavon Chimyon	92	92,4	32,0	60,4	
61	Yuqori Archa O‘rikzor	27	27,0	9,5	17,5	
62	Buloqboshi Yangiyer	34	34,1	13,0	21,1	
63	Isaqov Avazbek mevalari	44	44,2	11,9	32,3	
64	Abduboqi ota zamini 2020	52	51,7	16,4	35,3	
65	Dilshoda Durdonha Xabibullo	47	46,9	17,5	29,3	
66	Usta xoshim xozi	10	10,0	5,8	4,2	
	Chimyon Xazrati Xuvaydo hududi	498	498,1	178,8	319,2	
67	Dashtda gul	28	27,6	27,6		
	Yangi bog‘ Raxmonali Abdumalik	28	27,6	27,6	0,0	
68	Konkiz Muxammad zamini	87	87,0	28,6	58,4	
69	Alijon Dilshod Baraka	78	78,3	26,46	51,8	
70	Tursunali Xamrali zamini	67	66,9	20,4	46,5	
71	Burxoniddin Baxodirjon fayzi	76	75,6	31,0	44,6	
72	Zayniyeva Maxhubaxon	405	404,9	36,2	368,7	
73	Ulug Umid	20	20,2	0,0	20,2	
74	Xonqiz Daryo Nur zamini	57	57,3	25,7	31,6	
75	Sherzodbek Shoxijaxon	85	84,9	21,9	63,0	

76	Fayzli Ne'matjon xosili	70	69,8	31,1	38,7	
77	Sherzodbek baraka nixollari	59	58,7	22,7	36,0	
78	Samandar O'lmas	20	20,4	16,5	3,8	
79	Yo'lchi Murod	61	61,1	17,0	44,1	
80	Burgutali Omad	49	48,9	41,7	7,1	
	Xonqiz Raximov Ro'zimatjon hududi	1 134	1134,0	319,3	814,7	
81	Qo'rg'ontep Rustamjon Abduraxim	165	164,8	53,6	111,2	
82	Nishonboy	95	95,1	50,5	44,6	
83	Qo'rg'ontep Maxkamboy Jaxongir	176	123,2	73,7	49,5	53,14
84	Qo'r. Murodjon Umid zamini	79	79,0	30,2	48,8	
85	Kurgontepa Sodikjon Soxibjon	132	131,9	51,8	80,1	
86	Qo'r. Agroxosilot davomchilari	145	144,6	54,5	90,1	
87	Mirzo yangi nixollari	45	45,2	17,6	27,6	
88	Akbarali kelajak zamini	45	45,3	13,98	31,3	
	Qo'rg'ontep zamin saxovati hududi	882	829,0	345,8	483,2	53,1
89	VET MILK	100	99,9	36,6	63,3	
90	Axrор Jamol Kamol	34	34,1	13,76	20,4	
91	Muxammadjon Ilxomjon zamini	17	16,9	7,1	9,8	
92	*Volida	580	546,1	283,8	262,3	34
93	G'oipov Jaloliddin	20	19,9	6,5	13,4	
	Cheksho'ra Mashrab Bobur hududi	751	717,0	347,8	369,2	34,0
94	Fergana-Oseana	8 177	8176,6	2971,8	5204,8	
	Tuman jami	15680	15459	5918	9542	220

Farg‘ona tumani hokimining
 2025-yil 9-iyuldagি
 151-11-163-Q/25-son qaroriga
 4-ilova

**2025-yil hosilidan davlat resursiga xarid qilinadigan bug‘doyning sinflar
 kesimidagi narxlarini aniqlash
 KOEFFITSIYENTLARI**

Bug‘doy sinflari	Kleykovina miqdori (foizdan kam bo‘lmasganda)	Qo‘llaniladigan koeffisiyent
Qattiq bug‘doy		
1-sinf	28	1,641
2-sinf	25	1,447
3-sinf	22	1,316
4-sinf	18	1,000
Yumshoq bug‘doy		
1-sinf	32	1,366
2-sinf	28	1,162
3-sinf	23	1,000
4-sinf	18	0,895
5-sinf qattiq va yumshoq bug‘doy	chegaralanmagan	0,827